



17- laboratoriya ishi

Ikki vauch valentli temir tuzlarini bilib olish

1. Probirkaga yangi tayyorlangan FeSO_4 eritmasidan 3—5 tomchi quying va uning ustiga qizil qon tuzi $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ eritmasidan bir necha tomchi qo'shing. Turunbul zangori cho'kmasi $\text{Fe}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2$ hosil bo'lishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing. Bu reaksiya eritmada Fe^{2+} ioni borligini bilib olish uchun sifat reaksiya hisoblanadi.
2. a) probirkaga temir (III)-xlorid eritmasidan 2—3 tomchi quying va ustiga sariq qon tuzi $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ eritmasidan bir tomchi tomizing. Berlin lazuri cho'kmasi $\text{Fe}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]_3$ hosil bo'lishini kuzating. Reaksiya tenglamasini molekulyar va ionli ko'rinishda yozing.
b) Probirkaga FeCl_3 eritmasidan 5—6 tomchi 0,01 M kaliy yoki ammoniy rodanid eritmasidan tomizing. Eritma temir (III)-rodanid $\text{Fe}(\text{SCN})_3$ hosil bo'lganligi tufayli to'q qizil tusga bo'yaladi. Reaksiya tenglamasini molekulyar va ionli ko'rinishda yozing.
3. a) va b) reaksiyalar Fe^{3+} ioni uchun sifat reaksiyasi hisoblanadi.

Mustaqil xulosa uchun topshiriq

1. Sodir bo'lgan hodisalarni izohlang.
2. Tegishli reaksiya tenglamalarini yozing.